



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŇ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

BOLALAR BOG‘CHASIDA TARBIYACHILARNING ELEMENTAR MATEMATIKA MASHG‘ULOTLARINI O‘RGATISH METODIKASI

Abdalova Ulbosn,

Nukus shahri 26-MSHBSH tarbiyachisi

***Annotatsiya:** Bolalar bog‘chasida tarbiyachilarning elementar matematika mashg‘ulotlarini o‘rgatish metodikasi o‘rganilgan. Shuningdek, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar uchun mazkur fandan oddiy va tushunarli tilda yozilgan ommabop darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish, matematik ongni, kerak bo‘lsa, bog‘chadan boshlab shakllantirish vazifasi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Metod, iqtidorli yoshlar, chuqurlashtirilgan ta‘lim dastur, matematika ta‘limi, mashq, didaktik o‘yinlar, interaktiv metodlar, reflesiv tuzatish, ta‘lim tarbiya.*

Har bir davlatning kelajakda o‘z maqsadlariga erishishida iqtidorli yoshlarning o‘rni beqiyos. Shu bois iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini rivojlantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasidagi islohotlarni tizimli amalga oshirish kabi ko‘plab vazifalar davlatimizning kelajakdagi rivoji uchun asosiy vazifa qilib belgilangan.

Ayniqsa, bolalar bog‘chasidan boshlab iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni saralab olish, chuqurlashtirilgan ta‘lim dasturlari asosida o‘qitish, yoshlarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish, vatanparvarlik, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik ruhida tarbiyalash, zamonaviy ta‘lim infratuzilmasi talablaridan kelib chiqib, mavjud moddiy-texnik bazani mustahkamlab borish, bilimlarni mustaqil shakllantirish uchun sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish kabi ko‘plab vazifalar belgilandi.[1]

O‘zbekistonda va dunyo mamlakatlarida matematika sohasi juda ham tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Matematika sohasini rivojlantirish mamalakatimizda yosh avlodga chuqur bilim berish hamda Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug‘bek kabi dunyo tan olgan buyuk allomalarga o‘xshagan avlodlarni tarbiyalash borasida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ishlar buning yaqqol misolidir.

Jumladan, 2023-yil mamlakatimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta‘lim” yili deb e’lon qilinib, bu boradagi ustuvor maqsadlar belgilandi. Yurtimizda avvaldan shakllangan ilmiy maktablar salohiyatini hisobga olib, hozirgi bosqichdagi milliy manfaatlarimiz va taraqqiyotimiz yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda, bu yil matematika sohasini rivojlantirish tanlab olingani ham bejizga emas.



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 9-iyulda “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishga oid” qaror imzolandi. Matematika sohasini rivojlantirish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilab berildi.[2]

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olimlar, yosh tadqiqotchilar ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv o‘tkazish vaqtida yoshlarda matematika faniga qiziqishni kuchaytirish, iqtidorli bolalarni kerak bo‘lsa bog‘cha yoshidan tanlab olib, ixtisoslashtirilgan maktablar va keyinchalik oliy ta’lim muassasalariga qamrab olish ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish kerakligi ta’kidlandi.

O‘zbekistonning matematika fani bo‘yicha salohiyati dunyo miqyosida tan olinganini, bu borada nufuzli maktablarimiz shakllanib faoliyat yuritayotganini, yetti nafar matematik olim Butun jahon fanlar akademiyasi a’zosi ekanini va matematika sohasini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun akademik Sh.Ayupovga O‘zbekiston Qaxramoni unvoni Davlatimiz rahbari tomonidan shahsan taqdirlanishi ham buning yaqqol misoli bo‘la oladi.[1]


Bolalar uchun mazkur fandan oddiy va tushunarli tilda yozilgan ommabop darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish, matematik ongini, kerak bo‘lsa, bog‘chadan boshlab shakllantirish vazifasi qo‘yildi.

Yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirish tayyorlov guruhlarida ancha takomillashgan va samarali ta’lim berish shakllarini izlash, ularni o‘quv-tarbiyaviy jarayonning turli bosqichlarida muammoli vaziyatlarga jalb etish milliy tiklanish va umuminsoniy qadriyatlarni bilish mafkurasiga asoslangan ta’limning yangi mazmunini tashkil etadi.[3]

Tarbiyachi har bir mashg‘ulotda yangi mavzu mazmunining asosiy masalalari va uni darsda ishlash metodikasini ochib beradi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, berilayotgan tavsiyalar, odatda, bolalarga berilishi kerak bo‘lgan topshiriqlar, mashqlar, savollarning tipik namunalaridir. Bunday mashqlar sonini tarbiyachi guruh bilan ishlashning aniq shart-sharoitlarini hisobga olib, o‘zi aniqlashi kerak.

Bolalar bog‘chasining tayyorlov gruxida bir haftada ikkita, bir yilda 72 mashg‘ulot o‘tkazish rejalashtiriladi. Mashg‘ulotlar sentyabr–may oyining oxirigacha har biri 25-30 minutdan o‘tkaziladi.[4]

Mashg‘ulotlarda didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali materiallardan keng foydalaniladi. Bolalar mashg‘ulotlarga qiziqib qatnashishlari uchun tarbiyachi quyidagi talablarga rioya qilishi lozim :



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

- ✓ Dastur materiallarini yaxshi o‘zlashtirib olish.
- ✓ Puxta material (namoyish qiluvchi va tarqatma) tayyorlash.
- ✓ Bolalar faoliyatini o‘zgartirib turishga, qiziqishga e’tibor qilish.
- ✓ Mashg‘ulot o‘rtasida harakatli o‘yinlar o‘tkazishni rejalashtirish.
- ✓ Mashg‘ulot davomida bolalarning mustaqil xulosa chiqarishlariga erishish.
- ✓ Bolalarning xilma-xil javoblarini rag‘batlantirish.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tayyorlov guruhlaru uchun matematika mashg‘ulotlaridan namuna

Mavzu: Ustida-ostida, chapda-o‘ngda, yuqoridan-pastga, pastdan-yuqoriga.

Metod: Didaktik o‘yin, muammoli izlanish, interaktiv metodlar.

Shakl: Jamoa, guruh va har bir tarbiyalanuvchi bilan ishlash.

Mashg‘ulotning ta’limiy maqsadi: a) narsalarni o‘lchamlari bo‘yicha taqqoslashga doir egallagan bilimlarini boyitib borish;

b) narsalarning o‘zaro joylashuvdagi ustida-ostida, chapda-o‘ngda, oldin, keyin, orasida, yonida kabi tushunchalar asosida tarbiyalanuvchilarda sodda tasavvurlarni shakllantirish, fazoda mo‘ljallashga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning tarbiyaviy maqsadi:

a) tarbiyalanuvchilarga dars berish jarayonida ahillik, hamjihatlik, xushmuomalalik, hozirjavoblik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalab borish;

b) matematika fani orqali hayotni to‘g‘ri tasavvur eta olish malakasini tarbiyalab borish.

Mashg‘ulotning rivojlantiruvchi qismi: Tarbiyalanuvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish faollik qobiliyatini rivojlantirish.

Mashg‘ulotning turi: Savol-javob, suhbat, didaktik o‘yin, amaliy ishlash.

Darsning jihozlanishi: didaktik materiallar, mavzuga mos ko‘rgazmali qurollar.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tarbiyalanuvchilarni o‘tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida turli amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Masalan: “Teskarisini ayt” o‘yinidan foydalanish mumkin. Tarbiyachi uzun desa, tarbiyalanuvchi qisqa deb javob beradi; agar tarbiyachi keng desa, tarbiyalanuvchi tor deydi; tarbiyachi baland desa, tarbiyalanuvchi past deb aytadi va hokazo. Shu tariqa o‘yin bir necha marta takrorlanadi.



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŇ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

2. Yangi mavzuni bayon etish. Yangi mavzu ekranda animatsiya orqali namoyish etiladi. Buning uchun rasmdagi bolalarga ism qo'yib suhbat o'tkazilsa chiroyliroq bo'ladi. Masalan:

- Davron maydonchada yuqoridan pastga sirpanchiq uchmoqda.
- Karim esa pastdan yuqoriga zinapoya orqali chiqmoqda.

Tarbiyalanuvchilar og'zaki masala tuzib, yechishga o'rganadilar. Masala tuzishda ular, albatta, chapdan o'ngroqqa, o'ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga so'zlarini o'z o'rnida ishlata olishlari kerak bo'ladi. Rasmga qarab arg'imchoq uchayotgan tarbiyalanuvchimning harakatini izohlab berish kerak. Yangi mavzuni tarbiyalanuvchilar ongiga yetkazib berish har bir pedagogning ijodiy izlanishiga, mahoratiga bog'liqdir.

b) – Qani, bolajonlar, rasmda nima tasvirlangan? Kimlarni ko'ryapsiz?

- Maktab kutubxonasi tasvirlangan, unda kutubxonachi va kitob olish uchun tarbiyalanuvchilar kelishgan.
- Dilshodning yonida kim bor?
- Dilshodning yonida Nasiba bor. Nasibaning o'ng qo'lida, Dilshodning esa chap qo'lida kitob bor.

Tarbiyalanuvchilarning o'zlariga ham mavzu asosida misollar toptirish.

3. Daftar bilan ishlash. Daftarning 4-betidagi (darslik 6 bet) tayoqcha, shakllarning yozilishini xat taxtada yozib ko'rsatish, uni havoda yozilishini mashq qilish, so'ng daftarda yozdirish. Dars davomida qiynalgan tarbiyalanuvchilarning qo'llaridan ushlab yozdirish.

4. Dam olish daqiqasini o'tkazish:

Biz yozdik, biz yozdik

Qo'llarimiz dam olsin.

Chiroyli yoz, yozsang xat,

Chunki bu ham zo'r san'at.

5. Mevalarga doir berilgan topshiriqni og'zaki bajarish.



Rasmda qanday mevalarni ko'ryapsiz?



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Mustahkamlash. Tarbiyalanuvchilar bu mavzuni yanada puxtaroq o‘zlashtirib olishlari uchun “Nima o‘zgardi?” didaktik o‘yin o‘tkaziladi. Tarbiyachi o‘yin qoidasi bilan tanishtiradi. Buning uchun stol ustiga har xil, bir xil rangdagi qo‘g‘irchoq, mashina, quyoncha, koptok kabi o‘yinchoqlarni bir qator qilib terib qo‘yiladi. So‘ng tarbiyachi bunday deydi: «Diqqat bilan qarang-chi, qaysi o‘yinchoqlar stol ustida turibdi, ular qanday joylashgan? Endi bir zumga ko‘zingizni yuming, – deb aytiladi. (Tarbiyachi yoki tarbiyachi ikkita yonma-yon turgan o‘yinchoqlarning o‘rnini almashtirib qo‘yadi.) – Endi ko‘zingizni oching, e‘tibor bilan qarang-chi, nima o‘zgardi?»

Tarbiyalanuvchilar diqqat bilan qarab, qo‘g‘irchoq bilan quyonchani o‘rni almashib qolganligini aytadilar. Bu o‘yinni geometrik shakllar bilan ham o‘tkazish mumkin. Bu esa tarbiyalanuvchilarni topqir, zukko, bilimdon bo‘lishga chorlaydi.

Baholash. Dars davomida faol qatnashgan tarbiyalanuvchilar rag‘batlantiriladi.

Dars yakunlanadi. Narsalarning o‘zaro joylashuvidagi tushunchalar asosida fazoviy tasavvurlar bo‘yicha egallagan bilimlariga yakun yasaladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017-yil.
2. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Jumayev M. Bolalarda boshlang‘ich matematik tushunchalarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi. Ilm-Ziyo. 2012 yil. 15.b.t
4. Jumayev M. Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi va metodikasi. Ilm-Ziyo. 2017-yil. 25.b.t